***Abstract.*** *In this article, the formation of social relations, the historical stages of legal regulation in this field, and the characteristics of social danger of this crime are analyzed in detail. In the study, international legal documents related to ensuring the safety of vehicle traffic, in particular, UN conventions, the experience of foreign countries and national legal norms were comparatively studied. The article describes the growth dynamics of traffic accidents, their negative consequences for human life and health, public safety, state and public interests, based on statistical data. Also, the theoretical views of national and foreign scientists on the issue of social danger of violating the rules of the industry were analyzed, and the objective and subjective factors determining the level and characteristics of social danger of the crime were scientifically substantiated. The legal and social necessity of the criminalization of this act has been revealed, and it has been proven that ensuring road traffic safety is one of the important tasks of the state. At the same time, special attention is paid to the issues of differentiating the acts committed with the intentional use of the vehicle for criminal purposes from the crimes of recklessly violating the rules of transport safety. At the end of the article, scientific conclusions and practical proposals aimed at eliminating existing problems in the field of road safety, strengthening crime prevention, improving legal mechanisms and protecting the life and health of citizens are put forward.*

***Keywords:*** *road traffic safety, criminal liability, criminalization, crime prevention, statistical analysis, interests of the state and society, protection of human life and health*

**Kirish**

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarining zamonaviy tizimi shakllanish bosqichlarini tadqiq etish, shubhasiz, ushbu sohaning vujudga kelish tarixiga nazar tashlashni taqozo etadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, birinchi avtomobil 1886-yilda ixtiro qilingan bo'lsa-da, dastlabki davrlarda undan keng ko'lamda odam yoki yuk tashish vositasi sifatida foydalanish nazarda tutilmagan. Biroq qisqa vaqt ichida avtomobillarning ommalashishi maxsus yo'llar qurilishini va ular bo'ylab harakatlanish tartibini joriy etishni zaruratga aylantirdi. Transport harakatini nazorat qilish maqsadida ilk bor 1893-yilda Fransiyada erkaklarga (Kun.uz, 2023), 1896-yildan esa ayollarga haydovchilik guvohnomalari berila boshlandi. 1900-yilga kelib jahon avtosanoati tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobillar soni 5 600 taga yetdi (Kun.uz, 2020).

Avtomobil harakatining takomillashishi va xalqaro miqyosga chiqishi natijasida transport vositalarining bir davlat hududidan ikkinchi davlatga o'tishi odatiy tus oldi. O'z navbatida, turli mamlakatlarda yo'l harakati qoidalarining xilma-xilligi haydovchilar uchun jiddiy noqulayliklarni keltirib chiqardi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida, 1909-yilda Parijda birinchi Xalqaro yo'l harakati qoidalari konvensiyasi qabul qilindi. Mazkur xalqaro hujjat bilan zamonaviy yo'l belgilarining asosi hisoblangan "Notekis yo'l", "Xavfli burilish", "Teng ahamiyatli yo'llar kesishmasi" hamda "Shlagbaumli temiryo'l kesishmasi" kabi dastlabki to'rtta belgilar tizimi tasdiqlandi. 1911-yildan e'tiboran ushbu yo'l belgilari Rossiya imperiyasi hududida ham o'rnatila boshlandi. Avtomobillar sonining shiddat bilan ortishi yo'l harakatini tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab etdi. Natijada, 1926-yilga kelib xalqaro yo'l belgilari tizimi yana ikkitaga ("Qo'riqlanmaydigan temiryo'l kesishmasi" va "To'xtash majburiy") ko'paydi (Kuznetsova, 2014).

1931-yil Jenevada bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada yo'l belgilarining yagona tizimi qabul qilindi. Ushbu tizimda asosiy urg'u so'zli yozuvlarga emas, balki grafik ramz va piktogrammalarga berilgani sababli u ilm-fanda "Yevropa tizimi" deb ataladi. Mazkur konferensiyada 26 ta yo'l belgisi ishlab chiqilib, ular funksional jihatdan uchta asosiy turga ajratildi (Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2023):

– ogohlantiruvchi;
– buyuruvchi (taqiqlovchi);
– ko'rsatuvchi.

1949-yil Jenevada qabul qilingan Yo'l harakati to'g'risidagi konvensiya hamda Yo'l belgilari va signallari haqidagi bayonnoma jahon miqyosida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimining shakllanishiga ulkan hissa qo'shdi. Mazkur konvensiya dunyoning 80 ta davlati tomonidan ratifikatsiya qilingan bo'lib, ko'plab mamlakatlar o'z milliy yo'l harakati qoidalarini aynan ushbu xalqaro hujjatlar qoidalariga muvofiqlashtirgan holda ishlab chiqqanlar. Ushbu xalqaro-huquqiy hujjatlarga sobiq Ittifoq 1959-yilda qo'shilgan va uning normalari asosida 1961-yilda ilk bor Ittifoq miqyosida yagona bo'lgan "SSSR shaharlari ko'chalari, aholi punktlari va yo'llarida harakatlanish qoidalari" tasdiqlangan (Kuznetsova, 2014).

**Asosiy qism**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, zamonaviy talablar va mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda, yo'llarda harakatlanishning yangi huquqiy asoslarini yaratish zarurati vujudga keldi. Shu bois, 1994-yilda BMTning 1968-yildagi Yo'l harakati to'g'risidagi (Republic of Uzbekistan, 1999) hamda Yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi konvensiyalari talablari, shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida "Yo'l harakati qoidalari"ning yangi tahrirdagi matni tayyorlandi. Ekspertiza jarayonlaridan so'ng, 1999-yil 19-avgustda sohaning bosh hujjati – "O'zbekiston Respublikasining yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi (ushbu Qonunga keyinchalik, xususan, 2013-yil 10-apreldagi O'RQ–348-sonli Qonun bilan tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan) (Republic of Uzbekistan, 1999).

Qonun ijrosini ta'minlash maqsadida barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning ushbu Qonun normalariga zid bo'lgan idoraviy-huquqiy hujjatlari muvofiqlashtirildi yoki bekor qilindi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 11-dekabrdagi qarori bilan yangi "Yo'l harakati qoidalari" tasdiqlandi. Gidrometeorologik va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar inobatga olingan holda, Hukumat qaroriga asosan 2016-yilning 1-martidan boshlab yangi tahrirdagi mukammal-

lashtirilgan Yoʻl harakati qoidalari amaliyotga joriy etildi (Republic of Uzbekistan, 1999).

Shunga qaramay, bugungi kunda avtomobil yoʻllarida transport vositalari oqimi va harakat jadalligining keskin ortishi bir qator tizimli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, yoʻl-transport hodisalarining koʻpayishi, buning oqibatida fuqarolarning ogʻir tan jarohatlari olishi, umrbod nogironlikka mahkum boʻlishi yoki halok boʻlishi bilan bogʻliq fojiali holatlar hamon yuqoriligicha qolmoqda. Bundan tashqari, shahar infratuzilmasidagi tirbandliklarning ortishi hamda transport vositalaridan chiquvchi zararli gazlarning atrof-muhit va ekologiyaga salbiy taʼsiri tobora dolzarb ijtimoiy-ekologik muammoga aylanib bormoqda.

Yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash sohasidagi islohotlar, birinchi navbatda, harakat ishtirokchilarining hayoti va sogʻligʻini muhofaza qilishning qonuniy kafolatlarini mustahkamlash maqsadini koʻzlaydi. Bu borada yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlashning mutlaqo yangicha, zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tizimli ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish orqali mavjud muammolarni fundamental oʻrganish hamda ularni bartaraf etishning eng samarali metodlarini ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoʻl harakati madaniyati va xavfsizligining tarixiy evolyutsiyasiga nazar tashlasak, ayrim eʼtiborli faktlar koʻzga tashlanadi. Masalan, Markaziy Osiyo hududida ham qadimdan harakatlanish tartibiga qatʼiy rioya qilingan. Ajdodlarimiz Ichan qalʼa hududiga oʻng darvozadan kirib, chiqishda esa chap darvozalardan foydalanganlar. Trafik va qatnov darajasi bugungi kun koʻrsatkichlaridan tubdan farq qilsa-da, bu boradagi tarixiy tartib-qoidalar haqidagi maʼlumotlar bizgacha yetib kelgan.

Piyodalar uchun moʻljallangan ilk yoʻlaklar (trotuarlar) esa XVIII asr oxirida Parijda qurilgan boʻlib, bugungi kunda ushbu muhim elementsiz nafaqat yirik megapolislar, balki qishloq infratuzilmasini ham tasavvur qilib boʻlmaydi. Avtomobillashuv jarayoni oʻz navbatida ilk noxush hodisalarni ham tarixga muhrladi. Jumladan, 1896-yil 30-mayda Nyu-Yorkda tan jarohati bilan bogʻliq birinchi yoʻl-transport hodisasi qayd etilgan boʻlib, unda Genri Uels boshqaruvidagi avtomobil va velosipedchi Evelina Tomas toʻqnashib ketgan (hodisa oqibatida velosipedchining oyogʻi singan). Oʻsha yilning 17-avgustida esa Londonda avtomobil harakati tufayli tarixdagi ilk oʻlim bilan bogʻliq YTH sodir boʻlgan. Unda soatiga 12,8 kilometr tezlikda harakatlanib kelayotgan avtomobil 44 yoshli miss Bridjit Driskollni bosib ketgan, biroq oʻsha davr huquqiy qarashlariga koʻra bu voqea "baxtsiz hodisa" deb baholangan (Aytmuratov, 2023).

Yuqorida keltirilgan maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, birinchi avtomobil yaratilgan davrdan to hozirgi kunga qadar yoʻl harakati qoidalariga qatʼiy rioya etish hamda "yoʻl harakati xavfsizligi"ni taʼminlash masalasi oʻz dolzarbligini yoʻqotmay kelmoqda.

Rasmiy statistik maʼlumotlarga koʻra, respublikamizda 2022-yilda 9902 ta yoʻl-transport hodisalari sodir etilgan. Ushbu noxush hodisalar oqibatida 9606 nafar fuqaro turli darajada jarohatlangan boʻlsa, afsuski, 2356 nafari hayotdan koʻz yumgan (Service of Traffic Safety of the Ministry of Internal Affairs, 2023).

2023-yil yakunlariga koʻra esa sohada jami 16 milliondan ortiq qoidabuzarlik, jumladan, 13 mln dan ortiq qoʻpol qoidabuzarlik, 42 mingga yaqin transport vositasini mast holda boshqarish, 300 mingdan ortiq piyodalar tomonidan sodir etilgan qoidabuzarlik holatlari qayd etilgan. Bunday huquqbuzarliklar oqibatida 9 839 ta yoʻl-transport hodisasi yuz berib, ularda 9 209 nafar fuqaro jarohatlangan va 2 282 nafar fuqaro halok boʻlgan. Eng achinarlisi, 2023-yilda bolalar ishtirokida 1 794 ta yoʻl-transport hodisasi qayd etilib, ushbu fojialar oqibatida 1 568 nafar bola jarohatlangan va 263 nafar voyaga yetmagan bola hayotdan bevaqt koʻz yumgan (Samisov, 2024).

Shuningdek, 2024-yilda Oʻzbekistonda 9 364 ta yoʻl-transport hodisasi qayd etilgan boʻlib, ularning oqibatida 8 901 nafar kishi jarohatlangan va 2 203 nafari halok boʻlgan. 2025-yilda mamlakatimizda jami 9 226 ta yoʻl-transport hodisasi kuzatilgan. Ushbu hodisalar natijasida esa 8 901 nafar fuqaro shikastlangan hamda 2 188 kishi hayotdan koʻz yumgan (Service of Traffic Safety of the Ministry of Internal Affairs, 2026).

Yuqoridagi keltirilgan tizimli statistik maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, transport vositalari bilan bogʻliq huquqbuzarliklarning sodir etilishi toʻgʻridan toʻgʻri davlat, jamiyat va shaxs manfaatlariga jiddiy moddiy zarar yetkazadi.

Bu jarayonda fuqarolarning xavfsiz yashashga oid huquq va erkinliklari poymol boʻlib, jiddiy ekologik, mulkiy va demografik yoʻqotishlar kelib chiqmoqda. Shu sababli, yoʻllarda har qanday haydovchiga transport vositasini boshqarish davomida salbiy taʼsir koʻrsatadigan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Bugungi kunda ushbu muammolarning oldini olish maqsadida barcha shahar va viloyatlarimizda infratuzilma obyektlari qayta taʼmirlanib, haydovchi hamda yoʻlovchilar uchun sezilarli qulayliklar yaratilmoqda. Yoʻllar sifatini oshirish borasidagi amaliy ishlar bilan bir qatorda, IIV Yoʻl harakati xavfsizligi xizmati tomonidan fuqarolarning manzillariga sogʻ-salomat yetib borishlarini taʼminlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar koʻrilmoqda. Shunday boʻlsa-da, sohada hali ham tizimli muammolar va zudlik bilan bajarilishi lozim boʻlgan qator vazifalar saqlanib qolmoqda.

Shu sababli, mamlakatimizda boshqa huquq tarmoqlari singari, jinoyat huquqida ham transport vositalarini boshqarish yoki ulardan foydalanish xavfsizligini taʼminlovchi hamda muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar alohida jinoyat-huquqiy muhofaza obyektlari qatoriga kiritilgan.

Bundan tashqari transport vositalari yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatini boshqa oʻxshash tarkibli qilmishlardan farqlash amaliyotda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero shaxs oʻziga tegishli transport vositasi orqali boshqa bir shaxsni qasddan urib yuborsa yoki bosib oʻtsa, bunday holatlarda aybdorning harakatlari transport jinoyati emas, balki shaxsga qarshi qaratilgan qasddan sodir etilgan jinoyat sifatida baholanishi va yuz bergan oqibatlarga qarab kvalifikatsiya qilinishi lozim. Yaʼni, agar avtotransport vositasidan odam oʻldirish maqsadida jinoyat quroli sifatida foydalanilsa, ushbu qilmish qasddan odam oʻldirishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Shuningdek, bugungi kunda xalqaro miqyosda transport vositasini odamlar gavjum joylarga haydash orqali teraktlar sodir etish tendensiyasi ham kuzatilmoqda. Bunday holatlarda qilmishni transport vositalaridan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (ehtiyotsizlik orqasidagi) jinoyatidan ajratib olish va toʻgʻri huquqiy baho berish uchun jinoyat qonunchiligida subyektning ayb shakli (qasd yoki ehtiyotsizlik) va jinoiy maqsadini aniq belgilovchi maxsus normalar nazarda turilgan.

“Nima sababdan jinoyat huquqida transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish mustaqil jinoyat sifatida belgilangan?” degan savolga javobni mazkur qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini tahlil qilish orqali topish mumkin. Zero, qilmishni kriminalizatsiya qilish masalasi yuzasidan fikr bildirgan olimlarning aksariyati har qanday jinoyatning muhim va ajralmas belgisi sifatida uning ijtimoiy xavfliligini koʻrsatadilar (Gontar, 2007). Shu bois, transport vositalari harakat yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishni jinoyat sirasiga kiritishning asosiy omillaridan biri uning yuqori darajadagi  ijtimoiy xavfliligidir. Jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy xavflilik qilmishni jinoyat deb topishning zarur sharti hisoblansa-da, biroq bu belgining oʻzigina kriminalizatsiya qilish uchun yetarli emas.

Ijtimoiy xavflilik kategoriyasi jinoyat huquqi nazariyasida bir necha oʻn yillar davomida bahslarga sabab boʻlib kelayotgan dolzarb muammolardan biridir. Buning asosiy sababi – olimlar ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati boʻyicha haligacha yagona va uzil-kesil toʻxtamga kelinmaganligidadir.

Yuridik adabiyotlarda ijtimoiy xavflilikning tarkibiy tuzilishi haqida ham turlicha qarashlar mavjud. Xususan, koʻpchilik tadqiqotchilar, ijtimoiy xavflilikni jinoiy tajovuzni tavsiflovchi barcha belgilarning yaxlit yigʻindisi sifatida baholaydilar (Abdusalomov & Karaketov, 1997).

Professor M. Usmonaliyevning fikricha, jinoyatning ijtimoiy xavflilik miqdori uning hajmiy koʻrsatkichi hisoblanib, bunda yetkazilgan zararning darajasi, kelib chiqqan oqibatning ogʻirligi, jinoiy harakatning qay darajada amalga oshirilganligi (tayyorgarlik koʻrish, suiqasd qilish yoki oxiriga yetkazilganlik bosqichi), qilmishning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilganligi, jinoyatning usuli, unda qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan ashyolarning ishlatilganligi hamda aybning xususiyatlari kabi omillar inobatga olinadi (Usmonaliyev, 2005).

K.R. Abdurasulova esa muammoga tizimli yondashib: “Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning, ushbu qilmish natijasida kelib chiqqan oqibatning va aybdor shaxsning ijtimoiy xavfliligi majmuidan iborat-

dir", degan konseptual fikrni bildirgan (Abdurasulova, 1994).

O'z navbatida, M.X. Rustambayev jinoyatning ijtimoiy xavfliligi uning jamiyatda keng tarqalganlik darajasi bilan belgilanishi to'g'risidagi muhim nazariy qarashni ilgari surgan (Rustambaev, 2006).

Ayrim olimlar shaxsning ijtimoiy xavfliligini qilmishning ijtimoiy xavflilik tizimiga kiritishga qarshilik bildiradi. Masalan, A.D. Nechayevning fikricha, "biz shaxs va qilmishning ijtimoiy xavfliligini ko'rib chiqishda ularni bir-biridan ajratgan holda o'rganishimiz kerak, chunki jinoyatchi shaxsining ijtimoiy xavfliligi qilmish sodir etilishidan oldinroq, bir qator hollarda bevosita jinoyat sodir etish vaqtida shakllanadi" (Nechaev, 2017). Biroq M. Abdusalomov va Y.M. Karaketovlar nazarida qilmishning ijtimoiy xavflilik tizimidan jinoyatchining shaxsini chiqarib tashlash va ajratish mumkin emas deb hisoblaydilar (Abdusalomov & Karaketov, 1997).

Bizningcha, shaxs individual ijtimoiy xavflilik xususiyati (xavfli yoki o'ta xavfli retsidivist deb topish holatlaridan tashqari) yoki unda qandaydir aniq bir jinoiy qilmishni sodir etish istagi yoki niyati mavjudligining o'zi hech qanday jinoiy-huquqiy oqibat tug'dirmaydi. Shu sababli, ijtimoiy xavfli qilmishning real sodir etilishi, ya'ni obyektiv ijtimoiy xavflilik amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq jinoiy javobgarlikning yagona va muqarrar asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ayrim olimlar ijtimoiy xavflilikning belgilarini uning darajasi va xususiyatiga ta'sir etuvchi, biroq mazkur kategoriyaning ichki tuzilishini shakllantirmaydigan tashqi holatlardan farqlash lozimligini ta'kidlaydilar. Xususan, ular qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga modifikatsiyalovchi ta'sir ko'rsatuvchi bunday holatlar sirasiga jinoyat sodir etish motivi va maqsadini kiritadilar (Konovalchuk, 2016).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori tushuntirishlariga ko'ra, jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati tajovuz obyekti (inson hayoti va sog'lig'i, mulk, jamoat xavfsizligi va h.k.), aybning shakli hamda qilmishning Jinoyat kodeksining 15-moddasiga asosan jinoyatlarning qaysi toifasiga kiritilganligi bilan belgilanadi (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2006). Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi esa qilmish sodir etilishi holatlari, chunonchi, jinoiy niyatning amalga oshirilish darajasi va jinoyatning bosqichlari, jinoyatni sodir etish usuli, yetkazilgan zarar miqdori yoki kelib chiqqan oqibatlarning og'irligi, shuningdek, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarda sudlanuvchining bajargan roli bilan belgilanadi (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2006).

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ayrim tadqiqotchilar ijtimoiy xavflilik tarkibidagi yetakchi element sifatida faqat obyektiv alomatlarni e'tirof etsalar, ikkinchi guruh olimlari subyektiv mezonlarni birlamchi deb hisoblaydilar. Uchinchi toifa vakillari esa ushbu kategoriya qilmishning obyektiv va subyektiv belgilarining muayyan qismi yoki ularning barcha zarur elementlari yaxlitligidan shakllanishini ta'kidlaydilar. Fikrimizcha, har qanday qilmishning ijtimoiy xavfliligi faqatgina obyektiv va subyektiv belgilarning uzviy birligi hamda majmui asosida belgilanishi lozim.

Yetkazilgan zararning ko'lami va oqibatlarini keltirib chiqaruvchi holatlar, qilmishning o'zi va sodir etish usuli, shuningdek, jinoyat-huquqiy muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlar hamda jinoyat predmeti qilmishning ijtimoiy xavfliligini bevosita belgilovchi asosiy elementlar hisoblanadi. Obyektiv alomatlar orqali namoyon bo'ladigan ijtimoiy xavflilikka bilvosita ta'sir etuvchi omillar sirasiga esa ayb shakli, jinoiy maqsad, motiv hamda jinoyat tarkibida to'g'ridan to'g'ri nazarda tutiladigan subyektning maxsus xususiyatlarini kiritish mumkin.

Demak, har qanday jinoyat singari transport vositalari yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishning ijtimoiy xavfliligi qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilishda namoyon bo'ladi.

Sodir etilayotgan yo'l-transport hodisalari insonlarning yashash huquqiga jiddiy tahdid solmoqda. A.S. Pivovarovning qayd etishicha, "yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklar bugungi kunda shaxs va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlariga real xavf tug'dirmoqda" (Pivovarov, 2002). A.I. Saitqosimovning fikricha esa "davlat siyosati tizimidagi yo'l harakati xavfsizligi muammosining ijtimoiy mohiyati, asosan, aholi hayoti va sog'lig'ini saqlash zarurati bilan bog'liqdir" (Saitkosimov, 2021).

Ushbu mulohazalarni ma'qullagan holda qo'shimcha qilish mumkinmi, davlat zimmasidagi eng ustuvor vazifalardan biri – insonning hayotiy muhim manfaatlari va huquqlarini ishonchli muhofaza qilishdir. V.E. Klyavinning ta'kidlashicha, "yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash ijtimoiy, iqtisodiy, demografik sohalardagi muammolarning yechimi, shuningdek, mintaqaviy rivojlanishga hamda odamlar hayoti sifati va darajasining o'sishiga ko'maklashuvchi shaxs xavfsizligini ta'minlash vazifalarining tarkibiy qismi hisoblanadi" (Klyavin, 2017).

A.S. Pivovarov to'g'ri ta'kidlaganidek, "xavfsiz yo'l harakati uchun zarur sharoitlar yaratish faoliyatning sohalararo xususiyati uni ijtimoiy boshqaruvning favqulodda muhim obyekti sifatida belgilaydi" (Pivovarov, 2002).

K.M. Raximov esa muammoning inson omili bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratib: "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash yo'nalishi inson hayoti va sog'lig'ini saqlash, uning turli ehtiyojlarini qondirish hamda mehnat qilish faoliyati xavfsiz kechadigan soha va ish o'rni sifatida shakllanishi lozim. Bu esa mazkur sohada xavfsizlikni ta'minlash yana bir ijtimoiy zarurat ekanligini anglatadi", deb ta'kidlaydi (Raximov, 2023). Demak, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish jinoyatlari uchun javobgarlik belgilanishining ijtimoiy zarurati bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Xulosa**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Jinoyat kodeksida transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish uchun jinoiy javobgarlikning belgilanishi, eng avvalo, fuqarolarning sog'lig'i, osoyishtaligi hamda davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Zero, xalqimizning "Yo'l qoidasi – umr foydasi" degan olijanob maqoli ham bejiz aytilmagan. Avtotransport vositalari harakati va ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi, nafaqat mamlakatimizda, balki butun yer yuzida millionlab insonlarning hayoti va sog'lig'ini asrab qolishning muhim huquqiy kafolati bo'lib kelmoqda.

## REFERENCES

Abdurasulova, K. R. (1994). *Ugolovnaya otvetstvennost za moshennichestvo [Criminal liability for fraud]* (Abstract of doctoral dissertation). Tashkent State University of Law.

Abdusalomov, M., & Karaketov, Yu. (1997). *Otvetstvennost za vymogatelstvo [Liability for extortion].* Fan.

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarini tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari [Specific features of investigating crimes related to the violation of safety rules for the movement or operation of vehicles]*. Academy of the MIA.

Alibayeva, N., Kuchkarova, R., Turgunova, F., Rozimova, G., Karaketova, Q., Jumanazarova, D., & Turabaeva, Z. (2026). Suicide prevention among adolescents: Integrating psychological assistance with legal and social frameworks. *Qubahan Academic Journal, 6*(1), 325–347. https://doi.org/10.48161/qaj.v6n1a2217

Aytmuratov, J. J. (2023). *Ichki ishlar organlari uchun "yo'l-patrul faoliyati" mutaxassisligi bo'yicha serjantlar tarkibi xodimlarini maxsus kasbiy tayyorlash kursi bo'yicha o'quv-uslubiy majmua [Educational-methodical complex on a special professional training course for sergeant personnel in the specialty of "road-patrol activity" for internal affairs bodies].* Academy of the MIA.

Epifanova, E. V. (2012). *Obshchestvennaya opasnost kak nauchnaya kategoriya, zakonodatelnaya definitsiya: istoriya i sovremennost [Public danger as a scientific category, legislative definition: History and modernity].* Yurlitinform.

Gontar, I. (2007). Kategoriya «Obshchestvennaya opasnost» v ugolovnom prave: ontologicheskiy aspekt [The category of "Public danger" in criminal law: Ontological aspect]. *Criminal Law*, (1), 16–19.

Gulyamov, Z. Kh. (1996). *Prestupleniya protiv pravosudiya [Crimes against justice].* Adolat.

Klyavin, V. E. (2017). *Razrabotka nauchnykh metodov povysheniya urovnya sistemnoy bezopasnosti dorozhnogo dvizheniya [Development of scientific methods for increasing the level of systemic road safety]* (Abstract of doctoral dissertation). Lipetsk State Technical University.

Konovalchuk, M. V. (2016). Obshchestvennaya opasnost prestupleniya i voprosy dekriminalizatsii (kriminalizatsii) deyaniy [Public danger of crime and issues of decriminalization (criminalization) of acts]. *Bulletin of the Samara Law Institute*, 3(21).

Kun.uz. (2020, February 10). *Avtoevolyutsiya: Ilk avtomobillar qanday yaratilgan? [Autoevolution: How the first cars were created?].* https://kun.uz/news/2020/02/10/avtoevolyutsiya-ilk-avtomobillar-qanday-yaratilgan

Kun.uz. (2023, October 8). *Haydovchilik guvohnomasi tarixi [History of driving licenses].* https://www.kun.uz/kr/news/2023/10/08/haydovchilik-guvohnomasi-tarixi

Kuznetsova, A. P. (2014). Istoriya dorozhnykh znakov [History of road signs]. *CAD and GIS for Highways*, 1(2), 99.

Martsev, A. I. (2001). Obshchestvennaya vrednost i obshchestvennaya opasnost prestupleniya [Public harmfulness and public danger of crime]. *Jurisprudence*, (4), 148–155.

Nechaev, A. D. (2017). *Kontseptualnye osnovy i teoreticheskoe modelirovanie kriminalizatsii i dekriminalizatsii [Conceptual foundations and theoretical modeling of criminalization and decriminalization]* (Doctoral dissertation). Saratov State Law Academy.

Pivovarov, A. S. (2002). *Obespechenie bezopasnosti dorozhnogo dvizheniya kak funktsiya organov mestnogo samoupravleniya [Ensuring road safety as a function of local government bodies]* (Abstract of doctoral dissertation). South Ural State University.

Raximov, K. M. (2023). *Yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash tizimining nazariy-huquqiy jihatlari [Theoretical and legal aspects of the road traffic safety system]* (Doctoral dissertation). Tashkent State University of Law.

Republic of Uzbekistan. (1999, August 19). *Law "On road traffic safety" (No. LRU-818-I).* Lex.uz. https://lex.uz/acts/24741

Rustambaev, M. Kh. (2006). *Oʻzbekiston Republicasi Jinoyat kodeksiga sharhlar: Maxsus qism [Commentaries on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan: Special part].* Ilm Ziyo.

Saitkosimov, A. I. (2021). *Yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlashda va inson hayotiy manfaatlari ustuvorligi [Ensuring road traffic safety and the priority of human vital interests].* In *"Yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlashning dolzarb muammolari va bu sohada huquqbuzarliklarning profilaktikasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplami [Collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic "Current problems of ensuring road safety and prevention of violations in this area"]*. Academy of the General Prosecutor's Office.

Samisov, O. (2024, February 29). *Oʻzbekistonda 2023-yili sodir etilgan 9,8 mingta YTH oqibatida 2,2 ming kishi vafot etgan [2.2 thousand people died in 9.8 thousand road accidents in Uzbekistan in 2023]*. Daryo. https://daryo.uz/2024/02/29/ozbekistonda-2023-yili-sodir-etilgan-98-mingta-avariya-oqibatida-22-ming-kishi-vafot-etgan

Service of Traffic Safety of the Ministry of Internal Affairs. (2023). *2022-yil davomida respublikamiz yoʻllarida sodir boʻlgan yoʻl-transport hodisalari boʻyicha tahlil [Analysis of road traffic accidents that occurred on the roads of our republic during 2022].* https://yhxx.uz/oz/statistics/analiz-dorozhno-transportn

Service of Traffic Safety of the Ministry of Internal Affairs. (2026). *Yurtimizda 2025-yilda sodir boʻlgan yoʻl-transport hodisalari tahlili [Analysis of road traffic accidents that occurred in our country in 2025].* https://yhxx.uz/oz/news/yurtimizda-2025-yilda-sodir-bolgan-yol-transport-h...#:~:text=Xususan%2C%20aholi%20soni%202021%2Dyildagi,5%20532%20396%20taga%20oshgan

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2006, February 3). *Resolution "On the practice of sentencing for crime by courts" (No. 1).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/1455976

Umnova, Yu. V. (2011). Obshchestvennaya opasnost v protsesse ugolovnogo pravotvorchestva i pravoprimeneniya [Public danger in the process of criminal lawmaking and law enforcement]. *Current Issues of Russian Law*, (2), 34.

Usmonaliyev, M. (2005). *Jinoyat huquqi: Umumiy qism [Criminal law: General part].* Yangi asr avlodi.

Zaripov, Z. S., & Kabulov, R. (1991). *Kvalifikatsiya krazh, grabezhey, razboev, sovershyonnykh putyom proniknoveniya v pomeshchenie ili inoe khranilishche [Qualification of thefts, robberies, burglaries committed by penetrating into a premises or other storage].* Academy of the MIA.

// YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 3-SON

VOLUME 6 / ISSUE 3 / 2026

DOI: https://dx.doi.org 10.51788/tsul.jurisprudence.6.3.

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence